

fargonaazot_uz

www.azot.uz

f fargonaazot.uz

AO Farg'onaazot

info@azot.uz



t.me/fargona_azot

2-son (1714) 2023-yil, 27-FEVRAL.

MISSIONERLIKDAN OGOH BO'LING! 2-bet

ЗНАНИЯ ЛИШНИМИ НЕ БЫВАЮТ







Korxona xotin-qizlari oʻrtasida buyuk ajdodlarimizga va ular qoldirgan bebaho ma'naviy merosga hurmat hamda Vatanga muhabbat va sadoqat tuygʻularini yanada kuchaytirish maqsadida "8- mart Xalqaro xotin-qizlar kuni" bayrami munosabati bilan oʻzbek xalqining mumtoz shoiralari Nodirabegim, Uvaysiy, Zebuniso va Zulfiyaxonimlarning ijodiy namunalari, gʻazallari, she'rlari boʻyicha mushoira tanlovining birinchi, ya'ni, sex bosqichiga start berildi.

an'atim saodatim" shiori ostida o't-kazilayotgan tadbir nizomiga asosan, ikki bosqichda o'tkazilishi belgilab berilgan. Birinchi bosqichida ishtirok etish istagidagi ishtirokchilar o'z sexlari ma'naviyat va ma'rifat xonalarida zamonaviy va qadimiy, buyuk shoir va shoiralarimiz she'r va g'azallarini, kuyga

solingan she'rlarini ifodali oʻqib eshittirishlari, milliy madaniyatimizni ask etgan raqslar koʻrsatishlari aytib oʻtilgan edi.

Ko'rik-tanlov joriy yilning 1-mart sanasigacha davom etishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunga qadar tanlov Markaziy kimyo laboratoriyasi va Texnik nazorat bo'limi, Elektr ta'minoti, Suv bug' ta'minoti, Elektr jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash, Nazorat oʻlchov asboblari va avtomatika, Sirka angidridi va sirka kislotasini qayta tiklash sexlarida boʻlib oʻtdi.

Tanlov sexlar bo'ylab davom etadi va g'oliblar ikkinchi bosqichga yo'l oladilar. Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan ishtirokchilar qatnashadilar.

MEHNATNING TAGI ROHAT

Xalqimizda mehnat qilgan inson yuksalaveradi degan gap bor. Haqiqatdan ham halol mehnat qilib, xalqning xizmatida boʻlgan, ayniqsa, oʻz Ona yurti uchun jonbozlik koʻrsatgan qahramonlarimiz oramizda sanoqli. Lekin ularning xizmatlari doimo yuksak baholangan...

oriy yilning 24-fevral kuni Sharqiy harbiy okrug faxriylar ishlari bo'yicha kengash raisi iste'fodagi podpolkovnik Tojimirza Giyasov, Farg'ona viloyat faxriylar ishlari bo'yicha kengash raisi iste'fodagi mayor Voxid Toshaliyev, SHXO kengashi faollari iste'fodagi mayor Shuxrat Mirzakarimov, iste'fodagi katta serjant Valijon Turayevlar tomonidan






ishlari boʻyicha kengashining "Faxriy yorligʻi" bilan, Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Komiljon Eshonov "Mudofaa vazirligi faxriysi" koʻkrak nishoni bilan taqdirlandilar.

Tantanali marosimda soʻzga chiqqan T. Giyasov taqdirlanuvchilarga Vatan oldidagi xizmatlari, shu oʻrinda, Qurolli Kuchlarimizda jonbozlik koʻrsatib, el-yurt xavfsizligiga qoʻshgan katta hissalari uchun oʻz minnatdorchiligini bildirib oʻtdi.

Korxona boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov Muxtorjon Fuzaylov va Komiljon Eshonovlarni tabriklar ekan, mustaqillikning ilk yillarida Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini tashkil topishida mashaqqatli mehnati, sadoqati va Oʻzbekistonimiz tinchligi yoʻlidagi fidokorona xizmatlari bebaho ekanligini aytib oʻtdi.



Oʻtgan safar insoniyat taqdirini hal qiluvchi asosiy masala — tarbiya haqida ummondan tomchi kabi ayrim mulohazalarni keng ommaga yetkazishga jazm qilgan edik. Agarki, aytganlarimiz yuzasidan sizda ham bir fikr boʻlsa, ularni bajonidil qabul qilishga tayyorligimizni ma'lum qilmoqchimiz.

Xullas, birinchi maqolamiz soʻnggida keyingi safar oʻqituvchilar, muallimlar, umuman olganda, ustoz degan oliy maqomga ega insonlar haqida fikr yuritishimizni aytgan edik. Katta mas'uliyat bilan va'daga vafo qilib, mulohazalarimiz, mavzuga oid koʻrgan, bilganlarimizni baholi qudrat siz azizlar bilan oʻrtoqlashsak.

.... (Davomi 2-betda).

YANGILANGAN MEHNAT KODEKSI

Deputatlarimiz mas'ulligida maromiga yetkazilgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 14-oktabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 2022-yil 17-martda ma'qullangan edi.



rezidentimiz tomonidan 2022-yil 28-oktabr kuni "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonun imzolandi.

Rasmiy e'lon qilingan kundan 6 oy o'tib kuchga kiradigan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksimiz aholi, ayniqsa, ijtimoiy ehtiyojmand toifalarni ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlar belgilangani bilan ahamiyatlidir.

Soʻnggi yillarda mehnat bozoridagi vaziyat oʻzgardi. Sohaga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida koʻpgina yangi institutlar hamda yangi mexanizmlar amaliyotga kiritigani kodeksning yangi tahrirdagisini qabul qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Amaldagi Mehnat kodeksi bozor iqtisodiyotiga o'tish vaqtida, ya'ni, 1995-yilda qabul qilingan edi. 2 qism, 16 bob va 294 moddadan iborat hujjatdagi normalarda davlat tashkilotlari va yirik sanoat korxonalari hamda turli mulkchilik shakllari, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlaridagi mehnat munosabatlari aks ettirilmagan.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi loyihasini ishlab chiqish jarayonida 10 dan ortiq xalqaro tashkilot, jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining qator konvensiyalari, 60 dan ziyod davlat tajribasi oʻrganilgan.

Mamlakatimiz mehnat qonunchiligining asosiy yoʻnalishlari belgilangan yangi tahrirda kuchga kiradigan kodeks hajmi amaldagiga nisbatan 3 barobar katta boʻlib, 581 ta moddani oʻz ichiga oladi. Unga bandlik, individual Mehnat munosabatlari, xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish xususiyatlari, xodimlarning mehnat huquqini himoya qilish, mehnat nizolarini koʻrib chiqishni nazarda tutuvchi normalar qoʻshilgan.

Yangi tahrirdagi kodeksni maromiga yetkazishda xalqaro ekspertlarning, XMTning tavsiya va takliflari inobatga olingan. Ishchi hamda ish beruvchi mehnat huquqi subyekti sifatida belgilangan kodeksda har ikki tomonning huquq va majburiyatlariga aniqlik kiritilib, ularning qoʻllanilish doirasi kengaytirilgan.

Yangi tahrirdagi Kodeksda mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashgʻulotlar sohasida kamsitishni, mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash, mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik, mehnat huquqlari ta'minlanishi, mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlangani hamda xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yoʻl qoʻyilmasligi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bogʻliq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy prinsiplari sifatida belqilangan.

Kuchga kiradigan kodeks bandlik, individual mehnat munosabatlari, xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solish xususiyatlari, hodimlar¬ning mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat

nizolarini koʻrib chiqish kabi normalarni oʻz ichiga oladi.

Yangi tahrirdagi mehnat kodeksida ijtimoiy va huquqiy himoyaga muhtoj ishchilarning ayrim toifalari — ayollar va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan shugʻullanadigan shaxslar, 18 yoshga toʻlmagan ishchilar, nogironlar, oʻrindoshlik asosida ishlovchilar, yakka tartibdagi tadbirkorlar mehnatini tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari aks etgan.

Xodimni ish stajiga qarab ishdan bo'shatish nafaqasini tabaqalashtirish va bunda aynan ushbu tashkilotda ishlagan muddatini inobatga olish nazarda tutilgan.

Dam olish kunini davlat bayramlari (ishlan-maydigan bayram kunlari) kunlariga toʻgʻri kelgan taqdirda koʻchirish qoidasi kiritilgan. Mehnat ta'tilining minimal davomiyligi kalendar kunlarda (15 ish kuni oʻrniga 21 kalendar kuni) belgilangan. Xodimni boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborish tartibi mustahkamlangan.

Shuningdek, moslashtirilgan ish vaqti rejimi belgilangani kuchga kiradigan kodeksning muhim jihatlaridan. Bu ma'lum bir xodim yoki tashkilotning tarkibiy boʻlinmalaridagi xodimlar guruhlari uchun ish kunining boshlanishi, tugashi va umumiy ish kuni muddatini xodimning oʻziga tartibga solishga ruxsat etgan holda ish vaqtini tashkil etish usuli hisoblanadi. Smenali ish, moslashuvchan ish vaqti, ish kunini qismlarga boʻlish, xizmat safari paytidagi ish vaqtlari va boshqalar hisobga olinadigan boʻldi.

Kodeksda ish beruvchi subyektlar sifatida mulkiy va idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, tashkilotlar, yo'llash huquqiga ega bo'lgan tashkilotlarning alohida tarkibiy bo'linmalari hamda jismoniy shaxslar belgilangan.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi choratadbirlarni amalga oshirishdan olingan saboqlarni hisobga olgan holda xodimga qisman ish haqi bilan, lekin eng kam ish haqidan kam bo'lmagan ta'til berish imkoniyatini belgilaydigan, shuningdek, ish haqi to'lanmagan ta'tilni 6 oygacha uzaytiradigan me'yorlar joriy etiladi.

Mehnat nizolarini ko'rib chiqish jarayonida jamoatchilik nazorati mexanizmlari aks ettirildi. Yakka mehnat nizolari komissiyalarda yoki sudda hal etilishi holatlari ko'rsatilgan, yakka mehnat nizosi mediatorga yuborilishini joriy etish, mehnat arbitraji tizimi yo'lga qo'yiladi.

Muxtasar qilib aytganda, ushbu hujjat mazkur sohadagi qator muammolarni, mehnat bozoridagi vaziyatni inobatga olib, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, qonuniy hal qilishda, ishlagan ishiga, ish beruvchi esa kiritgan sarmoyasiga munosib tarzda e'tibor va rag'batga ega bo'lishini kafolatlaydigan muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahmud QAYUMOV, Yuridik boʻlimi boshligʻi oʻrinbosari.

Kimyogar

(Boshlanishi 1-betda).

slida otam kabi, onam kabi mo'tabarlik rutbasida teng turgan muallimlar haqida soʻz aytishning oʻzi aiyin. Shunday boʻlsa-da, uzoq yillar amalga oshirilgan "zigzag" shaklidagi turfa xil islohotlar natijasida anchayin "izdan chiqqan" va bugun zo'r mashaqqat bilan "reabilitatsiya" qilinayotgan bu tizimning ayrim vakillari uchun o'zgarish vaqti kelganligini eslatib o'tmoqchimiz. "Ayrim vakillari uchun" degan soʻzlarimiz inobatga olinishini so'raymiz. Chunki, bu mulohazalar barcha o'qituvchilar uchun birday tegishli emas.

Yaxshi eslayman, maktabdagi oʻqituvchilarimiz kiyinish madaniyatida soddalik, odmilik, orastalik yaqqol koʻzga tashlanar edi. Hikoyat Ro'zmatovna (tarix), G'ofirjon Mirzayev (boshlang'ich ta'lim), Azim Karimovich (tarix), Hoshimjon Ma'rufjonov (biologiya), Innokentiy Ivanovich (jismoniy tarbiya), Maqsuda Ismoilovna (biologiya), Sanobar Shokirova (boshlang`ich` ta'lim), Ma'rifat Abdullayevna (oʻzbek tili va adabiyoti), Fotima Maradze (fizika) kabi oʻqituvchilarimizni eslasam, oʻta kamtar, kamgap va ziyoli siymolar ko'z o'ngimda gavdalanadi. Aslida o'sha davrning hamma ustozlari ham shunday siyratga ega edilar.

E'tibor bergan bo'lsangiz, men dastlabki ura'uni kivinish madaniyatiga berdim. Achchig bo'lsa-da, aytish kerak, pedagogik jamoalarda faoliyat ko'rsatayotgan muallimlarimizning ba'zilari tashqi ko'rinishiga qarab, o'ylanib qolar edim. Bu ta'lim muassasasimi yoki modalar uyimi?

Jimjimador soch turmaklari, e'tiborni jalb qiluvchi "yal-yal" matodan tikilgan liboslar, ko'zni qamashtiradigan taqinchoqlar va nihoyat qimmat parfyum. Bunda faqat maktab emas, balki, umuman, barcha toifadagi ta'lim muassasalari nazarda tutilmoqda.

O'sha barcha toifadagi ta'lim maskanlariga ilm olaman deb kelgan yoshlar ongiga bu jarayon qanday ta'sir qilishi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?

Ana endi shuncha hashamatga so'nggi rusumdagi qimmatbaho uyali aloqa vositasini ham go'shing. O'sha ayrim o'gituvchilarimizning "arzandasi"ga aylangan bu telefonlar butun dars davomida sinf "egasi"ning stolida bo'lishi tabiiy holga aylanib qolgan. Dars paytida undan foydalanib turish ham unchalik "vahimali" ish emas deya hisoblanadi. Dars sifati-chi, deysizmi? Bir narsa deyish qiyin...

Bu hali hammasi emas. Yaxshi bilasiz, pedagogning psixologik "immuniteti" mustahkam bo'lishi, sinf (auditoriya) to'la o'quvchi yoki talaba e'tiborini o'zining magnit kabi kuchli aurasi bilan o'tilayotgan fan ichiga tortib olib kirib ketishi kerak. Ammo, "Oppogoy va yetti gnom" ertagidagi malika kabi o'ziga "mahliyo" boʻlgan oʻqituvchining fikri-zikri faqat oʻzida bo'lsa, professional dars o'tish jarayonini undan kutish mumkinmikan?

Tabiiyki, aksariyat holatda o'zi bilan ovora bo'lgan muallimning qulog'iga o'quvchilarning ortigcha savoli-yu, boshqa murojaatlari yoqmaydi. Bilimsizligi yoki darsga yuzaki tayyorgarlik ko'rganligi oqibatida u o'quvchi jamoalarga "adashib" qo'shilib qolgan yana bir toifa oʻqituvchilar borki, ular nafaqat oʻsha jamoa, balki, o'quvchilarning ham "sho'ri"dir.

Rus tiliga ixtisoslashgan sinflarda barcha fanlar shu tilda o'tiladi. Jumladan, men ishlagan maktabda ham. Tanaffus yoki oraliq darslar boʻlmagan paytda oʻqituvchilar xonasida keyingi darsga tayyorgarlikdan bo'sh fursat topsangiz, hamkasbingiz bilan "bir chimdim" gurung qilishga ulgurasiz. Safimizga o'zim kabi yangi qo'shilgan bir o'qituvchi opamiz bilan bo'lib o'tgan suhbat hali-hamon vodimda. U

savolni berdim. Ammo u, bu tilni shunchaki maishiy muloqot darajasida bilishini, fan darajasida esa, mutlago bilmasligini aytib o'tdi.

Yoki boshqa maktabda ishlaydigan bir tanish oʻqituvchim jamoalariga uzoq viloyatdan bir erkak jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib kelgani, aslida uning kasbi boshqa ekanligi, u jamoaga qo'shilgandan keyin muhit buzila boshlaganligi, oʻquvchilar, ayniqsa, qizlar va ayol muallimalariga tegajog'liq qilayotganligini katta tashvish bilan bildirdi. Jamoa undan qutula olmayotganligi, bunga sabab, o'sha

hammasiga emas, balki ayrimlariga tegishli edi bu gaplar.

Qiziq bir savol tug'iladi. Erkak o'qituvchilarchi? Ularning qusuri yo'qmi? So'nggi davrlarga kelib juda kamchilikni tashkil etgan erkak oʻgituvchilar haqida ham keyingi maqolalarimda fikr aytaman, albatta.

Oliy yoki o'rta maxsus ta'lim tizimidagi eng katta illat hisoblangan "yig'di-yig'di" yoki "korrupsion" muhitga nisbatan ayovsiz kurash olib borilayotganligi, ochiqlik va shaffoflik birinchi darajali ish sifatida ko'rilayotganligini OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarda muntazam kuzatib borayotganim bois, ta'limning bu toifasiga alohida to'xtalib o'tishni lozim topmadim. Kun kelib, bu mavzuni alohida yoritarman balki. Hozir esa, maktabga qaytsak.

Abdulla Avloniy kabi millat ma'rifati uchun jon tikkan yana bir buyuk ajdodimiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" deya nechun bu maskanni bunchalar ko'kka ko'targan? Bu savolga javobni har bir o'quvchimiz shoshmasdan, aqlni peshlab topadilar degan umidimiz yoʻq emas.


Masala boshqa tomonda. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i deya e'tirof etilgan maktabga munosib o'qituvchi bo'lish uchun qanday inson bo'lish kerak o'zi aslida? Agarki, eng qutlug' maskan sifatida maktab tan olinsa, unda millatimizning eng munosib, Avloniy hamda Behbudiylar maslagiga sodiq bo'lgan, kamtar, zukko, donish, g'ururi baland, bir so'z bilan aytganda komil insonlar ishlashi kerak emasmi?

Ta'limga, o'gituvchilar sha'ni, gadr-gimmatiga o'ta kuyunchaklik bilan g'amxo'rlik qilinayotgan bugungi kunda endi muallimlarimiz ham o'zgarishlari shart ekanliklari haqida bejiz gapirmadik. Qars ikki qoʻldan chiqadi. Buni his etmas ekanmiz, oʻzimizda, ongimizda, "men"imizda, "biz"imizda o'zgarish qilmas ekanmiz, bu ulug' imoratga dadil qadam qo'yish haqida jiddiy o'ylab ko'rish kerak bo'ladi.

Millat ta'limini zimmasiga olgan o'qituvchi degan oliy martabaga hamma ham munosib bo'lishi qiyin. O'qituvchilik bu – o'zlikdan, huzurhalovatdan voz kechish demakdir. Shukurki, muallim va muallimalarimizning aksariyati ana shu mas'uliyatni his qilgan holda mehnat qilmoqdalar. Orzuimiz - bugungi maqolamizga ʻqahramon " boʻlgan oʻsha "ayrim" va "ba'zi"lar oramizda mutlago golmasa.

Ikki tengsiz saodat – ota va ona kabi mo'tabarlikka hamda eng ulug' imorat xizmatchisi degan sharafga munosib bo'lishdek baxtni sizga Yaratgan ato etib qo'yibdimi, shubha qilmang, siz chindan ham baxtlisiz.

Ha, aytgancha, keyingi maqolamiz o'qituvchilarimiz barcha majburiy mehnatdan ozod qilinganini hali ham "hazm" qila olmayotgan ayrim amaldorlar dunyoqarashi va shu mavzuga daxldor boshqa fikrlarni o'rtaga tashlaymiz.



yoki talabalarga qo'pol munosabatda bo'la boshlaydi. Diqqat bilan kuzatsak, aynan shu toifadagi o'qituvchilarda ko'proq muammolar

Ya'ni, asabiylashish, betoqatlik, xo'jako'rsinga ishlash, o'quvchilar va hamkasblarini nazariga ilmaslik alal-oqibat bu o'qituvchidagi egoistik xarakter "marazm"ini yuqori nuqtaga olib chiqadi. Jamoa yoki oʻquvchilar bilan teztez tortishib golish, konfliktga kirishib ketish, oʻqituvchiga xos boʻlmagan agressiv harakatlar va "kurakda turmaydigan" iboralarni ishlatish odativ holga aylanib qoladi. Bunday holatlarning ayrimlarini ijtimoiy tarmoqlarda kuzatgansiz,

Xavotirlisi shundaki, tanish-bilish va boshqa vositalar orqali "bir amallab" pedagogik juda gattig hayajonlanar, asablari tarang edi. Men unga hayajonlanmaslikni, dars oʻtishda ruhiy xotirjamlik zarur ekanligini aytib, tinchlantirmogchi bo'ldim.

Shunda u universitetni tamomlab, turmushga chiqqani va xoʻjayini bilan birga Rossiyaga ishlagani ketganligini, yetti yil deganda Farg'onaga qaytishgani, bir kun ham o'z fanidan dars o'tmagani, rus tilida esa, umuman dars o'ta olmasligini tushkunlik bilan ma'lum qildi. Men "shunday qilib ishlash shartmi?" deya savol berganimda, u yaqin bir tanishlarining boshqa bir tanishlarga qilgan "katta iltimos"i bilan bu yerga o'tgan hafta ishga kirganligi va endi qattiq afsusda ekkanligini aytdi. Yetti yil Rossiyada yurgan bo'lsa, rus tilini

o'zlashtirmagan ekanmi, dersiz. Men ham shu

"yasama" jismoniy tarbiya o'qituvchisi ortida bir "kattakon" borligini aytib, hamkasbim men bilan xayrlashdi.

To'g'ri, bu voqealar yaqin o'tmishimdagi esimga tushgan ayrim sahifalar. U kunlar ortda qolmoqda. Qattiq ishongim keladi, o'sha ikki o'qituvchi o'zlariga munosib joylardan ish topgan bo'lsalar ajab emas.

Muammolar yoxud o'qituvchi degan ulug' zotga xos bo'lmagan noxush manzaralar fagat shularmikin? Yoʻq. Har oyda qimmatbaho kafe va restoranlarda "gap" yeyishlar, "alg'ov o'yinlari"... Adashganim yo'q, bilaganim, xabarim borligi uchun aytyapman bu gaplarni. Sezgan boʻlsangiz, yuqoridagi gaplar asosan muallima opa-singillarimizga tegishli edi va maqolam avvalida aytganimday, ularning

Dolzarb mavzu

MISSIONERLIKDAN OGOH BO'LING!

4. Sport musobaqalari, koʻrgazmalar uyushtirish

5. Musulmon o'lkalarga turli (masalan hamshira,

6. Ingliz tili, kompyuter o'rgatish nigobi ostida

O'z saflariga qo'shilganlarni moddiy

va qatnashuvchilarga bukletlar va hadyalar ulashish.

tarbiyachi) nomlar ostida missioner kadrlar ioʻnatish.

missionerlik kutubxonalarini, klublarini tashkil etish.

rag'batlantirish, ularni chet ellarga jo'natish, ularni

8. O'z yurtlariga kelqan sayohatchilarni ham

nazardan chetda qoldirmaslik va hokazo.

ish bilan ta'minlash.

Missionerlik lotin tilida "missio" ya'ni, "topshiriq", "jo'natish" so'zidan olingan bo'lib, diniy maqsadiga ko'ra, dinga e'tiqod qilmaydiganlar yoki boshqa dinlarga mansub shaxslarni muayyan dinga kiritishdir. Aslida esa missionerlik muayyan ijtimoiy guruhning siyosiy maqsadlarini amalga oshirishni o'z oldilariga yazifa sifatida qo'yadilar.



Payg'ambarimiz sallalohu alayhi vassalam hadislarini noto'g'ri talqin qilish kabi jirkanch usullarni qo'llaydi. Insonlarning diniy savodxonligi yetarli emasligidan juda unumli foydalanadi.

Ular maqsadlari yoʻlida hech qanday vositani ayamaydilar, usul-nayranglari doimo takomillashib boradi. Mana ulardan bir nechtasi: 1. Insoniy yordamlar ko'rsatish. Bunga, albatta,

moddiy yordamlar (tibbiyot, oziq-ovqat) va soʻzsiz "ruhiy" yordamlar kiradi. 2. Mahalliy xalq tilida o'sha xalqning urf-odatlarini

hisobga olgan holda, sifatli, rangli, rasmli xristian da'vat kitobchalarini bepul tarqatish. Ko'pincha bu kitoblar Qur'on oyatlari bilan "bezaladi".

3. Xristianlikni targ'ib qiluvchi gazeta-jurnallar chigarish.

Ko'rib turganingizdek, ularda g'oya har ganday vositani oglaydi. Ushbu nayranglar ta'siri ostida har bir kishida uchta holat kuzatiladi: 1. Targ'ib qilinayotgan o'zga dinni qabul qiladi.

2. Ba'zi hollarda o'zga dinni ham haq yo'lda deb o'ylay boshlaydi. 3. Ba'zi hollarda esa o'z diniga bo'lgan sadoqati

yo'qola boshlaydi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida missionerlik haqida aniq ta'rif berilgan va uning taqiqlangani

ochiq yozilgan. "3-modda. Missionerlik— aniq maqsadga qaratilgan mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali shaxsni (bir guruh shaxslarni) o'z diniga kiritish magsadida unga (ularga) diniy qarashlarni majburan singdirishga va

diniy ta'limotni tarqatishga doir faoliyat; Prozelitizm — missionerlik faoliyatining bir konfessiyaga e'tiqod qiluvchilarni boshqa konfessiyalarga o'tkazishga qaratilgan shakli.

7-modda. Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi".

Globallashuv jarayonida iqtisodiy inqiroz davrida dunyoda gegemonlik qilishga intilish tobora kuchaymoqda. Bir necha asr oldin koloniyalashtirish xristianlikning shioriga aylangan boʻlsa, hozirda "jahonga kirib borish", aynan missionerlik harakatlari oqibatida tobora kuchayayotganligi namoyon bo'lmoqda. Axborot-tahliliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, missionerlarning tobora kuchayib borayotganini ko'rsatib turibdi.

Javobgarlik masalasi qanday bo'ladi?

Jinoyat kodeksiga muvofiq, bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qoʻllanilganidan keyin sodir etilgan boʻlsa bazaviy hisoblash migdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

I. MIRZAXMEDOV, O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Din ishlari bo'yicha qo'mita bosh mutaxassisi. Internetdagi materiallar asosida tayyorlandi.



TILSIZ YOV

Yong'in sodir bo'lishi o'zidan mudhish iz qoldiradi. Fugarolar yoki davlat mulki barbod bo'ladi, insonlar tan jarohati oladi, ko'p miqdorda moddiy zarar ko'riladi.

ong'inning kelib chiqishi sababi o'rganilganda birinchi galda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinmaganlik, elektr yoki gazda ishlovchi jihoz va uskunalarini yoqib qoldirish, yosh bolalarni nazoratsiz golganligi aytiladi. Demak, bunday salbiy hodisalarni oldini olish uchun nima qilish kerak? Ajdodlarimiz aytganidek, kasalni davolashdan ko'ra uni oldini olgan yaxshi. Bu borada viloyat IIB Yong'in xavfsizligi boshqarmasi va uning quyi tizimlari xodimlari tomonidan koʻplab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, sodir bo'layotgan yong'inlarning asosiy gismi fugarolar yashash uylarida boʻlayotganligini hisobga olib, viloyat hududidagi aholi yashash uylari va ko'p qavtli uylarda yashovchi fuqarolar xonadanlarining yong'in xavfsizligi holati o'rganilib chiqildi. Fuqarolar bilan yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha suhbatlar oʻtkazildi. Qishloq va mahalla fuqarolar yigʻinlarida, maktab, bogʻcha va korxona tashkilotlarda, davolash muassasalarida faollar bilan birgalikda ishtirokida yig`ilishlar fugarolar va tushuntirish ishlari olib borildi. Undan tashqari aholi koʻp yigʻiladigan maskanlarga yong'inlarni oldini olishni targ'ib etuvchi eslatma va plakatlar tarqatildi. Televideniye va gazetalarda bu borada muntazam ravishda ko'rsatuv

va magolalar berib borilmogda.

Shunga qaramay joriy yilning shu davrigacha viloyatimiz hududida juda koʻplab yongʻin hodisasi roʻyxatga olindi. Bu yong'inlar tufayli fuqarolar kuyib tan jarohati olishdi, hayotdan erta ko'z yumishdi, afsuski. Tahlillarga qaraydigan boʻlsak, yongʻinlarning asosiy qismi kuz-qish fasllariga to'g'ri keladi. Chunki har bir yashash uyida, ish joylarida va boshqa maskanlarda issiqlikka boʻlgan talab ortadi. Shu sababli, fugarolar isitish uskunalaridan foydalanish vaqtida yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilmasligi natijasida, yoki bu jihozlarni nazoratsiz goldirishi, élektr simlariga ortiqa kuchlanish keltirib chiqaruvchi isitish jihozlarni ulashi, uylardagi mo'rikonlarini nosozligi kabi sababga ko'ra ko'plab yong'inlar sodir bo'lmoqda. Buning natijasi esa o'z mehnatlari evaziga yillab yiq'ilqan molmulklarni kuyib-kul boʻlishiga olib keladi.

Aziz fuqarolar bunday holatlar sizning xonadoningizda kelib chiqmasligi uchun gaz va elektr isitish moslamalari va elektr jihozlaridan to'g'ri, qoida talablari asosida foydalanish, kerakligini unutmang!

> R. MADAMINOV, "Farg'onaazot" AJ OBYOXTTEB inspektori, katta leytenant.



Новые методы продвижения товаров и услуг через социальные сети Что такое SMM (social media marketing)

Сегодня набирает обороты реклама и продажа товаров, предоставление услуг через социальные сети. Появилось даже специальное направление в маркетинге SMM (social media marketing).



то такое SMM (social media marketing)? Именно эту тему попытаемся раскрыть в **L**данной статье. Существует не так много источников трафика. Наряду со ссылочным и поисковым трафиком сегодня огромное значение имеют трафики социальных сетей. Не использовать его, значит не раскрыть потенциал сайта. Поэтому большое значение сегодня уделяется SMM (от английского-social media marketing) это комплекс мер направленных на привлечение целевых посетителей из социальных платформ. Специалисты по SMM работают не с сайтом, а с аккаунтами в социальных сетях. Суть SMM в том, чтобы создать контент, который будет распространятся в различных сообществах и уже без участия разработчика. Принято считать, что контент, который распространяется в социальных сетях вызывает больше доверия, ведь информация на сайте в априори воспринимается как рекламная. А тут она может прийти от знакомого, родственника, друга, а значит заслуживает максимального внимания для изучения. Преимущество SMM в том, что здесь можно точно воздействовать на свою целевую аудиторию, ориентируясь на регион, пол, интересы и другие параметры пользователей и выбирая соответствующие площадки для размещения информации. SMM сегодня активно используется не только при продвижении товаров и услуг это популярный инструмент для продвижения различных СМИ, общественных организаций, политических партий и государственных органов власти. Путём создания аккаунта в социальной сети поддерживает контакт с аудиторией.

Существует много методов SMM, рассмотрим основные из них.

> — Создание сообщества в социальной сети, представительство компании или бренда, здесь публикуются информация о новых товарах или услугах, новости, связанные с темой, интересные факты, проводятся розыгрыши, предлагаются купоны и скидки и многое другое.

> — Создание ветки на форуме. В данном случае выбирается несколько ключевых форумов по тематике сайта или продукта и создаются темы, которые не противоречат правилам ресурсов. Здесь можно отвечать на вопросы клиентов, работать с претензиями и замечаниями, реагировать на критику, публиковать важные объявле-

— Блоги здесь возможны, как создание отдельного блога по тематике бренда, так и заказ публикаций в форме непредвзятых обзоров на самых посещаемых блогах. Задача — вызвать интерес у пользователя, показать свой продукт или ресурс, а это в свою очередь всегда является востребованным, поскольку о нём пишут ведущие блогеры. Естественно здесь тоже будет много комментариев, с которыми также необходимо будет много работать.

Для большего эффекта инструменты SMM можно совмещать со SMO-social media optimization, то есть оптимизацией сайта под социальные сети. SMO предполагает проведение работ на самом сайте для того, чтобы его интерфейс стал дружественным к социальным сетям. Должны быть социальные кнопки, виджеты групп, формы подписки, новости и другое.


В процессе работы с социальными сетями часто допускаются ошибки и в этой связи необходимо рассмотреть некоторые из них.

Прежде всего большое количество постов за день. Не нужно превращать страницу в поток спама, вполне достаточно будет одной хорошей публикации за определённый период времени, главное, чтобы была системность: например если два раза в неделю будет что-то «новенькое», то у пользователей будет стимул подпи-

Отсутствие обратной связи, также одна из ошибок — это очень важно ведь суть социальных сетей в общении, если её нет, то страница не получит подписчиков и скорее всего можно растерять и имеющихся подписчиков.

Удаление негативных комментариев или ответы на неё в грубой форме. Не нужно ссориться с пользователями. Задача создать благоприятный имидж, а не наоборот, необходимо проявить лояльность, сдержанность, готовность исправить ошибки если они есть.

Использование однотипного контента — это ещё одна ошибка. Доказано, что пользователи охотнее заходят на те страницы, где имеются различные по сути контент фото, видео, тексты, игры и другое. Также не нужно публиковать только информационный контент по теме, пусть это иногда будут интересные факты, анекдоты, связанные с представляемым продуктом или полезные программы для клиентов. Безусловно SMM это очень кропотливая работа, для которого необходимо выделять отдельного специалиста, но правильно организованное взаимодействие с пользователями через социальные сети обязательно принесёт свои плоды.



Как передавали информационные агентства всего мира 6 февраля текущего года в Турции произошло землетрясение, ряд сильных подземных толчков с магнитудой 7,7 и 7,6 баллов по шкале Рихтера. Эти землетрясения привели к серьезным разрушениям и жертвам в стране, а также в соседней Сирии. В сегодняшней статье о том, как себя вести во время землетрясения читателям газеты «Кимёгар» расскажет начальник Управления по ГЗ и ЧС AO «Farg'onaazot» Азизбек Холбекович Юсупов.

ЗНАНИЯ ЛИШНИМИ НЕ БЫВАЮТ

— Как известно на территории Узбекистана также есть сейсмически активные зоны и в этой связи хотелось бы узнать о самой природе землетрясений?

— Землетрясение — это подземные толчки и колебания в результате сейсмических подвижек определенных участков земной коры. Проявление: колебания земли, образование трещин, обвалы, оползни, сели и так далее. Землетрясения занимают первое место в ряду стихийных бедствий по человеческим жертвам и

— Существуют ли закон обеспечивающий правовое регулирование в этой сфере?

— 15 июня 2021 года был принят Закон Республики Узбекистан «Об обеспечении сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан». Целью настоящего Закона является регулирование отношений в обеспечения сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан. В соответствии с данным законом определены объекты сейсмической безопасности, дана их классификация, согласно которой объекты по своей значимости делятся на четыре категории. Также в законе определены основные направления государственной политики в области обеспечения сейсмической безопасности, полномочия государственных органов в области обеспечения сейсмической безопасности. Отдельная глава настоящего Закона посвящена организации деятельности в области обеспечения сейсмической безопасности, а также правам и обязанностям физических и юридических лиц в области обеспечения сейсмической безопасности.

Как подготовиться к землетрясению? — Землетрясения, как и другие стихийные бедствия природного

характера редко поддаются прогнозированию, но к таким чрезвычайным ситуациям необходимо быть готовыми всегда. Как рекомендуют специалисты, необходимо заранее продумать план действий во время землетрясения при нахождении дома, на работе, на транспорте и на улице. Кроме того, необходимо всегда держать в удобном месте документы, деньги, карманный фонарик и запасные батарейки. Также нужно всегда иметь дома запас питьевой воды и консервов в расчете на несколько дней. Мебель особенно кровати не должны располагаться возле окон и наружной стены. Шкафы, полки и стеллажи в квартирах должны быть закреплены, а с верхних полок и антресолей сняты тяжелые предметы. Если дома имеются опасные вещества (ядохимикаты), легковоспламеняющиеся жидкости то их необходимо хранить в надежном, хорошо изолированном месте. Каждый, кто живёт в многоквартирном доме должен знать, где находится рубильник, магистральные газовые и водопроводные краны, чтобы в случае необходимости отключить электричество, газ и воду.

Как действовать во время землетрясения?

— Население, живущее в сейсмически активной зоне, время от времени ощущает земные колебания с амплитудой 2-3 балла, но землетрясения с высокой амплитудой крайне редки, а потому люди в большинстве своём не знают, как себя вести в таких случаях. Прежде всего ощутив колебания здания, увидев качание светильников, падение предметов, услышав нарастающий гул и звон быющегося стекла, нельзя подаваться панике (от момента, когда человек почувствует первые толчки до опасных для здания колебаний всегда есть 15-20 секунд). В таких случаях необходимо быстро покинуть здание, взяв документы, деньги и предметы первой необходимости. Покидая помещение необходимо спускаться по лестнице, а не на лифте. Оказавшись на улице необходимо отойти на открытое место, площадь, пустырь - подальше от зданий, столбов и линий электропередач. Если человек не смог покинуть помещение и остался внутри неё, то в таких случаях необходимо встать в безопасном место — у внутренней стены, в углу, во внутреннем стенном проеме или у несущей опоры. Если есть возможность, лучше спрятаться под стол — он защитит от падающих предметов и стояков. Необходимо держатся подальше от окон и тяжелой мебели. Вот в вкратце те рекомендации, которым необходимо следовать в случае чрезвычайной ситуации вызванного землетрясением.

— В конце нашей беседы расскажите пожалуйста о том какая работа проводится на нашем предприятии по обучению рабочих и служащих в области гражданской защиты и чрезвычайных ситуаций?

 В соответствии с приказом по предприятию и разработанной учебной программе ведущими специалистами управления ГЗ и ЧС с 20 января текущего года проводятся учебные занятия для инженерно-технических работников, рабочих и служащих и для руководителей формирований. Учебная программа на 2023 год состоит из 120 учебных часов. Занятия проводят квалифицированные специалисты управления ГЗ и ЧС К. Эшонов, Х. Муродов и М. Усманов, которые имеют соответствующие дипломы и сертификаты, дающие право на проведение занятий. В регулярно проводимых учебных занятиях на I и II промышленных площадках предприятия участвуют практически все работники предприятия. По итогам занятий в ноябре месяце будут проведены учения по ГЗ и ЧС. Методика проведения учебных занятий состоит из 6 тем, о том, как действовать при землетрясениях посвящена отдельная тема занятий. Хочу отметить, что прошедшие полный курс обучения работники предприятия будут готовы к действиям в чрезвычайных ситуациях.

Из настоящего интервью с начальником Управления ГЗ и ЧС с Азизбек Холбековичем Юсуповым стало ясно, что в настоящее время обеспечение безопасности жизнедеятельности работников предприятия во многом достигается за счет умения органов управления объектового уровня работать в режимах функционирования, понимание своего места и роли в решении управленческих задач при чрезвычайных ситуациях.


О ПОЛЬЗЕ ВИТАМИНОВ В ВЕСЕННИЙ ПЕРИОД

Витамины - биологически активные вещества, необходимые для нормальной жизнедеятельности организма. Они способствуют правильному обмену веществ, повышают работоспособность, выносливость, устойчивость к инфекциям. Многие витамины не синтезируются в организме и поступают только с пищей. Суточная потребность в них не превышает нескольких тысячных, сотых долей грамма. Витамины очень нестойки и разрушаются во время варки продуктов.

Отсутствие витаминов в пище может приводить к тяжелым расстройствам в организме, которые в настоящее время встречаются редко. Часто отмечается снижение обеспеченности организма теми или иными витаминами (гиповитаминозы). Гиповитаминозы носят сезонный характер, наблюдаются чаще всего в зимне-весеннее время, и для них характерны повышение утомляемости, снижение трудоспособности, подверженность различным простудным заболеваниям. Повышенная потребность в витаминах возникает при усиленной физической нагрузке, переохлаждении организма, при заболеваниях желудочно-кишечного тракта (гастритах, колитах), у женщин во время беременности и т.д.

Витамин А необходим для роста новых клеток, зрения, костей, здоровья кожи, волос и работы иммунной системы. Замедляет процесс старения. Основные источники витамина А – рыбий жир и печень, сливочное масло, яичные желтки, сливки и цельное молоко, облепиха и шиповник, морковь.

Витамины группы В решают свою главную функцию - участие в тканевом дыхании и выработке энергии, играют важную роль в поддержании эмоционального здоровья. В больших количествах витамины группы В содержатся в печени, почках, сердечной мышце. В продуктах растительного происхождения большое количество витаминов В находится в крупах и ржаном хлебе. Все эти витамины разрушаются алкоголем, рафинированными сахарами, никотином и кофеином, поэтому многие люди ис-



пытывают их дефицит. Наиболее богаты витамином С (аскорбиновой кислотой) плоды киви, клюквы, шиповника, красного перца, цитрусовых, черной смородины, лук, томаты, салат и капуста. Люди должны получать аскорбиновую кислоту с пищей, поскольку у человека в отличие от животных, ген, отвечающий за образование одного из ферментов синтеза аскорбиновой кислоты, нефункционален.

Витамин D синтезируется в организме под воздействием ультрафиолетовых лучей или поступает вместе с пищей. Богаты витамином D печень трески, сельдь, скумбрия, семга, а также молоко и яйца. Однако, получить нужное количество этого витамина только при помощи продуктов нельзя т. к. в них он содержится в недостаточном количестве. Главный источник витамина D – солнечный свет. Не отказываете себе в ежедневных прогулках в дневное время суток. Даже если на улице пасмурно, организм все равно попадает под воздействие ультрафиолета.

Витамин Е – мощный антиоксидант. Витамин Е содержится в семечках, орехах, маслах и шпинате. Но самый богатый его источник – проросшие зерна пшеницы.

В частности пророщенная пшеница благоприятно воздействует на все системы организма:

- улучшает защитные свойства организма, облегчает борьбу с инфекцией;
- повышает устойчивость к холоду; ■ купирует воспалительные процес-
- насыщает кровь кислородом;
- выводит из организма радионуклиды, токсины и шлаки;
- понижает концентрацию холесте-
- понижает артериальное давление;
- стабилизирует кишечную микро-
- нормализует пищеварение; ■ устраняет метеоризм и пищевари-
- тельные расстройства; ■ избавляет от стрессов и затяжных
- тонизирует организм и обеспечивает его энергией;
- ускоряет восстановление после длительных заболеваний и истоще-
- стимулирует заживление ран;

депрессий:

- успокаивает нервную систему; активируют умственную деятель-
- ность; ■ восстанавливает работу эндокрин-
- ных желез; ■ запускает процессы рассасывания
- доброкачественных образований (полипов, кист, миом, фибром);
- ■предотвращает раковые заболева-

Витамин К необходим для синтеза белков. Витамин К содержится в зеленых листовых овощах, таких, как шпинат и латук, в белокочанной и цветной капусте, брокколи, брюссельской капусте, в пшеничных отрубях, присутствует в некоторых фруктах, таких, как авокадо, киви и бананы. Значительное количество витамина К есть в

оливковом масле.

Подготовлено по материалам из интернета.





давних времён Алишер Навои, высоко почитался как личность и поэт, а потому популярность его произведений среди наших предков была высокой. Практически в каждой семье хранились рукописи со стихами Навои и бережно хранились наряду с Кораном и другими священными книгами.

Во времена, когда ещё не существовали газеты, радио и телевидение образованная часть населения в так называемых кружках чтецов Навои (Навоийхонлик давралари), устраивала навоийские чтения, комментируя философские подтексты, скрытые между строками поэм и газелей. Наиболее известные произведения А. Навоий перекладывались на музыкальный лад и звучали в песнях, становясь ещё более популярными среди народа.

Известный востоковед М. Никитский в своём научном труде, исследуя жизнь и творчество Навои пытался более подробно, нежели предыдущие ученые, приводить сведения известных современников о Навои, таких как Давлатшах Самарканди и Хусейна Бойкары. Его работа, в основном, носит ознакомительный характер, но представляет для навоиведов интерес его взгляд на историю возникновения этнонима чагатайского язы-

ка (староузбекский язык-примечание редактора), каким считался язык обширного населения Мавераннахра. В частности, он пишет: «Туркестан, издревле славился своими плодоносными долинами, богатыми рудами, красотой лесов и вод, был любимым местом пребывания государей из дома Чингиза и Тимура. Всякий раз, как только могли они уловить несколько свободных минут для отдохновения от утомительных войн, то с особенным удовольствием любили они удаляться в уединение прекрасных долин Согдианы. Один из сыновей Чингизхана Чигатай, дал имя своё области и его имя сделалось названием страны и языка.

Под покровительством государей, умевших ценить и вознаграждать усилия гения, литература Чигатайская достигла полного своего развития. Наречие Чигатайское есть язык большей части независимого Туркестана».

Никитский особо подчеркивает, что этот язык блестяще выразился в творчестве Алишера Навои. Он не сомневался в том, что корни поэта уходят в этот край, а чигатайский язык не что иное как староузбекский язык, существовавший за много веков до Амира Тимура в землях, включающих в себя Самарканд, Хиву, Андижан, Шахрисабз и Бухару. Захириддин Мухаммад Бабур в своём произ-

ведении «Бабурнаме пишет, что народ Андижана говорил на том языке на котором писал Алишер Навои, подчеркивая, что его родным наречием был андижанский

Творчество Алишера Навои велико, но да наших дней дошла его мизерная часть. Так взятое на государственное хранение и находящаяся в фондах института востоковедения Узбекистана произведения великого мыслителя, составляет 254 рукописи, которые были переписаны в середине XIX в начале XX века. И в этой связи примечательным является тот факт, что даже ханы целенаправленно издавали указы на переписку произведений Алишера Навои с целью распространения их в виде подарков. Так в конце одного издания написано следующее, «что указом Кокандского хана Мухаммад Алихона в 1838 году было переписано за 6 месяцев триста экземпляров сборника газелей «Чор девон» с дорогим переплетом». Что является бесспорным свидетельством того, как высоко ценилось творчество великого поэта среди узбекской аристократии.

Подводя итог можно смело сказать, что его произведения и сегодня продолжают служить развитию узбекской литературы, являясь объектом для подражания и воодушевления.

Города Ферганской долины в произведении Захириддина Мухаммада Бабура «БАБУРНАМЕ»

Каких страданий не терпел и тяжких бед, Бабур? Каких не знал измен, обид, каких клевет, Бабур? Но кто прочтет "Бабурнаме", увидит, сколько мук И сколько горя перенес царь и поэт Бабур.

каждого писателя свой почерк, стиль в которых выражаются идеи и мировоззрения. Сегодняшняя наша газетная публикация приурочена к дню рождения талантливого писателя, ценителя искусств, литературы и науки, оригинального мемуариста Захириддина Мухаммада Бабура. С точки зрения историографии Захириддин Мухаммад Бабур пришёл на историческую арену Центральной Азии в период феодальных междоусобиц и прожил невероятную на события жизнь. Захириддин Мухаммад Бабур, благодаря тому, что получил прекрасное образование, обладал широким кругозором и острым умом и оставил значительный след во многих областях жизни народов Центральной Азии.

Он был не только полководцем и правителем, но также являлся основателем империи Бабуридов в Индии (в мировой истории вошел как «империя великих моголов»).

Если внимательно изучить его творчество, эта многогранная личность предстаёт перед нами как учёный и поэт, оставивший богатое творческое – литературное и научное наследие. Так, написанное им в 1521 году философско-религиозное произведение «Мубаййин», является ничем иным как трактатом по юриспруденции. Другое, не менее важное его произведение «Трактат об арузе», написанное 1523-1525 годах посвящена поэтике. Также есть произведения, посвящённые музыке и военному делу. Составленный им алфавит на основе арабской графики «Хатти Бабури» был составлен с учётом особенностей фонетики тюркских языков.

Тем не менее центральное место в творчестве Захириддина Мухаммад Бабура занимает его исторический труд-«Бабурнаме». Это бесценное произведение узбекской литературы было начато на его исторической Родине и законченно в Индии. Данное произведение носит автобиографический характер и отражает историю народов Средней Азии, Афганистана и Индии в конце XV и в начале XVI веков.

Чем же привлекает нынешних читателей это произведение? Это прежде всего большим количеством исторических сведений и их достоверностью. «Бабурнаме» не имеет себе равных среди прочих исторических трудов, написанных в данный исторический период в Средней Азии, Иране, Афганистане и Индии.

Захириддин Мухаммад Бабур в начале своего произведения даёт следующее описание Ферганской долины: «Фергана – область в пятом климате, находится на границе возделанных земель, на востоке от нее - Кашгар, на западе – Самарканд, на юге – горы Бадахшанской границы, на севере, хотя раньше и были города, подобные Алмалыку, Алмату и Янги, название которого пишут в книгах Таразкент, но они разрушены моголами, и там совсем не осталось населенных мест. Фергана – небольшая область, хлеба и плодов там много. Вокруг Ферганы находятся горы, с западной: окраины, где Самарканд и Худжанд, гор нет, ни с какой стороны, кроме этой, враг не может пройти зимой. Река Сейхун, известная под названием «воды Худжанда», приходит в Фергану с северо-восточной стороны; пройдя через эту область, она течет на запад, проходит севернее Худжанда...».

Такова характеристика Ферганской долины. В «Бабурнаме» автором уделяется особое внимание описанию Андижана. Этот город в средние века был столицей Ферганы, а потому был обнесён крепостью. Как пишет Захириддин Мухаммад Бабур:

«В Фергане семь городов, пять из них - на южном берегу реки Сейхун, два на северном берегу. Один из городов на южном берегу-Андижан. Это – столица области Ферганы. Хлеба там много и плоды изобильны, дыни и виноград



хороши. Во время созревания дынь не в обычае продавать их возле садов. Груш лучше андижанских не бывает. В Мавераннахре, после Самарканда и Кеша, нет укрепления, больше Андижана. В городе трое ворот, арк Андижана находится на южной стороне. Вода входит в город по девяти каналам, удивительно, что она не выходит ниоткуда. Вокруг крепости, с внешней стороны рва – большая дорога, мощеная щебнем; крепость сплошь окружают, пригороды; их отделяет от крепости этот ров. По краю рва

Примечательно что автор, давая характеристику населению Андижана пишет следующее: «Жители Андижана – тюрки. В городе и на базаре нет человека, который бы не говорил по-тюркски. Говор народа сходен с письменным языком, сочинения Мир Алишера Навои, хотя он родился и вырос в Герате, написаны на этом языке.»

Говоря о городе Ош Захириддин Мухаммад Ба-

«Еще один город – Ош. Он стоит к юго-востоку от Андижана в четырех йигачах пути. Воздух там прекрасный, проточной воды много, весна бывает очень хороша. О достоинствах Оша дошло до нас много преданий. К юго-востоку от крепости стоит красивая гора, называемая Бара-Кух. На склоне горы Бара-Кух, между садами и городом, есть мечеть, называемая мечетью Джауза. С горы течет большой ручей. Несколько ниже внешнего двора мечети-площадь, поросшая трилистником, полная тени и приятности; каждый путешественник и прохожий отдыхает

там. В области Фергана нет города, равного Ошу по приятности и чистоте воздуха».

Совершая исторический экскурс по Маргилану в «Бабурнаме» читаем следующее:

«Еще один город – Маргинан, к западу от Андижана, в семи йигачах пути. Это хороший город, полный всякой благодати. Гранаты и урюк там очень обильны и вкусны. Есть один сорт граната, который называют «дона-калан» «крупнозернистый»; в его сладости есть легкий приятный кислый привкус сливы. Этим гранатам можно отдать предпочтение перед семнанскими гранатами. Есть там сорт урюка, из которого вынимают косточки, кладут внутрь ядрышки и сушат; называют его «субхани», он очень вкусный. Дичь там хорошая, белые кийики водятся близко. Автор «Хидаи» родом из деревни маргинанской области, называемой Ришдан.».

Утекло много воды со времени написания данной книги, но как видно из произведения Захириддин Мухаммад Бабур на доступном читателю языке даёт подробные географические, климатические сведения той или иной местности, его стратегическом значении, сведение о населении и о знаменитых личностях, а также сведения о флоре и фауне.

Если читатель этой статьи прочитав отрывки из «Бабурнаме» заинтересовался этой исторической хроникой, то не лишне было бы прочитать её полностью.

> Ответственный за подготовку материалов на русском языке Отабек БЕГИДЖАНОВ.

ОТВЕТЫ НА ВОПРОСЫ КРОССВОРДА В ПРЕДЫДУЩЕМ НОМЕРЕ:

ПО ГОРИЗОНТАЛИ: 5. Бораты. 6. Воздух. 9. Бор. 11. Родий. 12. Радий. 13. Алюминаты. 16. Иодиды. 19 Гидрат. 20. Рутений. 21. Бородин. 22. Глаубер. 26. Нитраты. 27. Ниобий. 28. Никель. 30. Мел. 33. Бор. 34. Газ. 36. Ионий. 37. Пар. 38. Калий. 39. Гидрид. 40. Магний. **ПО ВЕРТИКАЛИ:** 1. Торий. 2. Стекло. 3. Золото. 4. Бутин. 6. Молибден. 8. Коллоид. 10. Цинкаты. 14. Адсорб-

ция. 15. Мирабилит. 17. Рубидий. 18. Кислоты. 23. Криптон. 24. Арсенаты. 25. Малахит. 29. Боксит. 31. Лантан. 32. Пирит. 35. Барий.

Kimyogar 🔞

MUASSIS:

«Farg`onaazot» aksiyadorlik jamiyati

ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:

E'zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108, Farg'ona shahri, Sanoat ko'chasi, 222. «Farg'onaazot» AJ. Tel.: 242-66-01: 65-33 Gazeta Farg'ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Margʻilon shahar, Turkiston koʻchasi 236 «B» - uy. Qogʻoz bichimi A-2. Buyurtma:

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 27.02.2023-yil. Ushbu songa mas'ul: E'zozxon ABDULLAYEVA. Rasmlar muallifi: Mirjalol G'ULOMNAZIROV.

Ushbu gazeta «Farg'onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.